



XALQ DEPUTATLARI JOMBOY TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 9-aprel

VI-101-57-7-94-K/24

Jomboy tumani

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 31-yanvardagi “Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida aholining biznes tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlashni yangi bosqichga olib chiqishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-39-sonli qarorining ijrosi yuzasidan, tumanda 2023-yil davomida amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 31-yanvardagi “Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida aholining biznes tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlashni yangi bosqichga olib chiqishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-39-sonli qarorining ijrosini ta‘minlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, 24-moddalariga asosan xalq deputatlari tuman Kengashining oltinchi chaqiriq, bir yuz birinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 31-yanvardagi “Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida aholining biznes tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlashni yangi bosqichga olib chiqishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-39-sonli qarorining ijrosi yuzasidan, tumanda 2023-yil davomida amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida, tuman hokimining birinchi o‘rinbosari Sadullayev Akram Baxritdinovichning hisoboti ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (A.Sadullayev), tumandagi tijorat banklari, tuman kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi hamda mahallalarga biriktirilgan hokim yordamchilari bilan birgalikda:

- aholiga ko‘rsatilayotgan bank xizmatlari sifatini oshirish bo‘yicha tegishli choralar ko‘rish;

- kreditlarni so‘ndirish muddatlari va tasdiqlangan jadvallarga qat‘iy rioya qilishni, kreditlar bo‘yicha qarzdorlarning muddati o‘tgan qarzdorliklarning hosil bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslik bo‘yicha barcha zarur chora-tadbirlarni ko‘rish;

- mahallalarda mavjud tadbirkorlarning muammolarini yechishga hamda iqtisodiy o‘shishning drayver sohalarida yangi tadbirkorlik loyihalarini amalga oshirishga ko‘mak berish;

- tadbirkorlik bilan shug'ullanish istagida bo'lgan fuqarolarga biznes loyihalarni tayyorlashda konsultativ ko'mak berish va uni amalga oshirish jarayonlarini doimiy monitoringini qilib borish;

- oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida ajratilayotgan kreditlar samaradorligini oshirish bo'yicha zarur choralarini ko'rish;

- tadbirkorlik bilan shug'ullanish istagidagi fuqarolarni biznes asoslariga o'qitish tizimini tashkil etish va ularni tadbirkorlikka yo'naltirish;

- bank kreditlari hisobiga ishga tushirilgan va bugungi kunda past quvvatlarda ishlayotgan korxonalar bo'yicha sabablarni aniqlab, ularning to'liq quvvatda ishlashiga amaliy yordam ko'rsatish choralarini ko'rish topshirilsin.

3. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjetini shakllantirish va uni ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi raisi (S.Boxodirov) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



SOBIROV KAYUM
XAMRAYEVICH